

ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI ASOSLARI

Yunusova Nilufar Musurmanovna
Kuvasoy pedagogika kolleji o'qituvchisi

Annotatsiya

maqolada ilk va maktabgacha yoshli bolalarga qoyilgan davlat talablarining asoslari, meyoriy hujjatlar, respublikada olib borilganishlar borasida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar : ta'lim, tarbiya, qonun, nutq, o'qish, davlat, bola, talab, asos, negizi.

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Insonni ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi. Pedagogika - yunoncha so'z bo'lib, «bola yetaklovchi» - ma'nosini bildiradi. Insonlarni ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarni o'zgartirib borishi natijasida pedagogika fani xalq orasida o'z mavqeyiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rin egallagan. Uning bosh masalasi tarbiyadir. Bundan uch ming yillar ilgari Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgani holda, uning ibodatxonalari qoshida maktablar tashkil etilib, koinlar tomonidan bolalarning ta'lim-tarbiya tizimi ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari. Mazkur Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari (bundan buyon matnda Davlat talablari deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustda 372-son O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan maktabgacha yoshda bolalarni (bundan buyon matnda bolalar deb yuritiladi) maktabgacha ta'lim muassalarida har tomonlama rivojlantirish, ta'lim tarbiya berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta'limiga tayyorlash bo'ycha davlat talablarini belgilaydi. Maktabgacha yoshda bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan. Maktabgacha yoshda bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari aniq bir yoshda bolaning rivojlanish standartlarini va bolaning yutuqlari va rivojlanish darajasini baholash imkoniyatini beruvchi indikatorlarni belgilaydi. Davlat talablarini ishlab chiqish asosida bola shaxsi rivojlanishining 4 ta yo'nalishi olingan (jismoniy rivojlanish, o'z o'ziga xizmat va gigiyena; ijtimoiy - hissiy rivojlanish; nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik; bilish jarayoni, atrof olam to'g'risida bilimga ega bo'lish va uni anglash). Bu 4 ta yo'nalish bo'limlarga bo'linib, birgalikda bola rivojlanishining yaxlitligini tashkil etadi. Davlat talablari O'zbekiston Respublikasi hududida mulkchilik shakli va idoraviy tasarrufidan qat'iy nazar, quyidagi ta'lim muassasalariga qo'llaniladi: davlat maktabgacha ta'lim muassasalari; nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari; maktabgacha yoshda guruhlar mavjud bo'lgan "Mehribonlik" uylari. Maktabgacha ta'lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim

turlari bo'yicha pedagogik kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshiradigan muassasalar, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya olayotgan oilalar mazkur Davlat talablariga rioya qilishlari lozim. Davlat talablari maktabgacha ta'lim tizimida va oilada 7 yoshgacha bo'lgan bolani tarbiyalash, maktabga tayyorlashda qo'llanilishi majburiydir. Uning vazifalari maktabgacha ta'lim metodikasini yaxshilash, pedagoglar malakasini oshirish, ta'lim-tarbiya berishning o'quv dasturini yaratish kabilardan iborat. Shuningdek, talablarda bola bilan ishlaganda e'tiborga olinishi zarur bo'lgan psixologik xususiyatlar ko'rsatilgan. Hujjatda belgilangan talablarga amal qilishi kerak bo'lgan tashkilot va idoralar ko'rsatilgan. Ularga: davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim olayotgan bolalar guruhi mavjud "Mehribonlik" uylari, maktabgacha hamda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan kollej va OITMlar, malakasini oshiruvchi tashkilotlar, shuningdek, maktabgacha hamda boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi tuman, shahar metodik bo'limlari kiradi. Davlat talablarining maqsad, vazifa va asosiy tamoyillari Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

— maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy meyorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon; rivojlanish — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar;

rivojlanish sohasi — bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar;

kichik soha — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi; kutilayotgan natija — bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi; bola kompetensiyasi — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatlar; integratsiya — bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik; inklyuziv ta'lim — bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon; "Men" konsepsiyasi — bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismi; refleksiv faoliyat — bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni. Davlat talablarining maqsadi — mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir. Davlat talablarining vazifalari quyidagilar hisoblanadi: maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash; milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish; ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash. Davlat talablari quyidagi tamoyillar asosida tatbiq etiladi: bolaning noyoblighi; "Men" konsepsiyasi va shaxsiy ta'limini yaratishda bolaning faol roli; bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi; bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli; bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashish Davlat talablarining tarkibi Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini ko'zda tutadi va bola rivojlanishiga ko'maklashadi. Davlat

talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohaslariga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) iborat.

Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi: jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonini rivojlanishi; ijodiy rivojlanish. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- yirik motorika;
- mayda motorika;
- sensomotorika;
- sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik.

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- "Men" konsepsiyasi;
- hissiyotlar va ularni boshqarish;
- ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- nutq va til;
- o'qish malakalari;
- qo'l barmoqlari mayda motorikasi.

"Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- intellektual-anglash malakalari;
- elementar matematik malakalar;
- tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

"Ijodiy rivojlanish" soha quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- dunyoni badiiy tasavvur etish;
- badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha); erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha); kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha); o'rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha); katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha); maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha). Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar mazkur Davlat talablarining 1- ilovasida belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

- 1.Yunusova G. S. THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN //The Way of Science. – 2014. – C. 84.
- 2.Yunusova, G. S. "THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN." The Way of Science (2014): 84.
- 3.Yunusova, G. S. (2014). THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN. The Way of Science, 84.
- 4.Юнусова Г. С. РАЗВИТИЕ ВОООБРАЖЕНИЯ МОЛОДЕЖИ И ПОДРОСТКОВ, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В БЛАГОПОЛУЧНЫХ И НЕБЛАГОПОЛУЧНЫХ СЕМЬЯХ //Theoretical & Applied Science. – 2013. – №. 6. – С. 91-94.

5. Юнусова, Гузал Султановна. "РАЗВИТИЕ ВОООБРАЖЕНИЯ МОЛОДЕЖИ И ПОДРОСТКОВ, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В БЛАГОПОЛУЧНЫХ И НЕБЛАГОПОЛУЧНЫХ СЕМЬЯХ." Theoretical & Applied Science 6 (2013): 91-94.
6. Юнусова, Г. С. (2013). РАЗВИТИЕ ВОООБРАЖЕНИЯ МОЛОДЕЖИ И ПОДРОСТКОВ, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В БЛАГОПОЛУЧНЫХ И НЕБЛАГОПОЛУЧНЫХ СЕМЬЯХ. Theoretical & Applied Science, (6), 91-94.
7. Mohinur D. KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 63-65.
8. Mohinur, Djalolova. "KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR." TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 63-65.
9. Mohinur, D. (2022). KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 63-65.
10. Mohinur D., Rahimjon U. A STUDY OF MEMORY PROCESSES AND THEIR DEVELOPMENT IN PRESCHOOL //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 5. – С. 62-65.
11. Mohinur, Djalolova, and Usmanov Rahimjon. "A STUDY OF MEMORY PROCESSES AND THEIR DEVELOPMENT IN PRESCHOOL." Uzbek Scholar Journal 5 (2022): 62-65.
12. Mohinur, D., & Rahimjon, U. (2022). A STUDY OF MEMORY PROCESSES AND THEIR DEVELOPMENT IN PRESCHOOL. Uzbek Scholar Journal, 5, 62-65.
13. Yuldashev F., Yuldasheva M., Djalolova M. SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF FEELING STUDENTS' LONELINESS (case of Uzbekistan) //INTERNATIONAL JOURNAL OF EARLY CHILDHOOD SPECIAL EDUCATION. – 2022. – С. 10116-10122.
14. Yuldashev, F., M. Yuldasheva, and M. Djalolova. "SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF FEELING STUDENTS' LONELINESS (case of Uzbekistan)." INTERNATIONAL JOURNAL OF EARLY CHILDHOOD SPECIAL EDUCATION (2022): 10116-10122.
15. Yuldashev, F., Yuldasheva, M., & Djalolova, M. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF FEELING STUDENTS' LONELINESS (case of Uzbekistan). INTERNATIONAL JOURNAL OF EARLY CHILDHOOD SPECIAL EDUCATION, 10116-10122.
16. Mohinur D. KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 63-65.
17. Mohinur, Djalolova. "KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR." TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 63-65.
18. Mohinur, D. (2022). KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 63-65.
19. Mamajonova, Sh K. "PSYCHOSOMATIC APPROACH IN CONSULTATIVE PSYCHOLOGY." Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения просветания общества. 2020.
20. Mamajonova, S. K. (2020). PSYCHOSOMATIC APPROACH IN CONSULTATIVE PSYCHOLOGY. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения просветания общества (pp. 361-364).
21. Mamajonova, Sh K. "PSYCHOSOMATIC APPROACH IN CONSULTATIVE PSYCHOLOGY." In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения просветания общества, pp. 361-364. 2020.

- 22.Мамажонова, S.K., 2020. PSYCHOSOMATIC APPROACH IN CONSULTATIVE PSYCHOLOGY. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения просветания общества (pp. 361-364).
- 23.Мамажонова SK. PSYCHOSOMATIC APPROACH IN CONSULTATIVE
- 24.Топволдиев К. А. ВОСТОЧНАЯ СТИЛИЗАЦИЯ //Составители. – 2021. – С. 66.
- 25.Топволдиев, К. А. "ВОСТОЧНАЯ СТИЛИЗАЦИЯ." Составители (2021): 66.
- 26.Топволдиев, К. А. (2021). ВОСТОЧНАЯ СТИЛИЗАЦИЯ. Составители, 66.
- 27.Топволдиев К. А. ОТРАЖЕНИЕ ОРИЕНТАЛИЗМА В ТЕКСТАХ ИА БУНИНА КАК СВОЕОБРАЗНОЕ ВОСПРИЯТИЕ ВОСТОКА //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
- 28.Топволдиев, Казбек Ахмадалиевич. "ОТРАЖЕНИЕ ОРИЕНТАЛИЗМА В ТЕКСТАХ ИА БУНИНА КАК СВОЕОБРАЗНОЕ ВОСПРИЯТИЕ ВОСТОКА." МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 4.4 (2021).
- 29.Топволдиев, К. А. (2021). ОТРАЖЕНИЕ ОРИЕНТАЛИЗМА В ТЕКСТАХ ИА БУНИНА КАК СВОЕОБРАЗНОЕ ВОСПРИЯТИЕ ВОСТОКА. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(4).
- 30.Topvoldiev K. USE OF ORIENTALISM IN LITERATURE AS RECEPTION OF IMITATION OF THE EASTERN WORLD //Конференции. – 2020.
- 31.Topvoldiev, Kazbek. "USE OF ORIENTALISM IN LITERATURE AS RECEPTION OF IMITATION OF THE EASTERN WORLD." Конференции. 2020.
- 32.Topvoldiev, K. (2020, December). USE OF ORIENTALISM IN LITERATURE AS RECEPTION OF IMITATION OF THE EASTERN WORLD. In Конференции.
- 33.TOPVOLDIEV K. Orientalism in Pushkin's cycle" Imitations of the Koran" //Scientific journal of the Fergana State University. – 2018. – Т. 1. – №. 4. – С. 62-65.
- 34.TOPVOLDIEV, K. "Orientalism in Pushkin's cycle" Imitations of the Koran"." Scientific journal of the Fergana State University 1.4 (2018): 62-65.
- 35.TOPVOLDIEV, K. (2018). Orientalism in Pushkin's cycle" Imitations of the Koran". Scientific journal of the Fergana State University, 1(4), 62-65.